

Umuminsoniy g‘oyalar va axloqiy qadriyatlarning jahon klassik
adabiyotida o‘z ifodasini topishi**Mannonova Maftuna Shukrillo qizi.***Qarshi xalqaro universiteti ðqituvchisi**maftunamannonova3@gmail.com.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jahon klassik adabiyotida umuminsoniy g‘oyalar va axloqiy qadriyatlarning badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Insonparvarlik,adolat,ezgulik,mehr-oqibat,hurmat va sadoqat kabi qadriyatlarning mashhur adiblar asarlarida qanday yoritilgani ochib beriladi. Shuningdek, klassik adabiyotning jamiyat ma’naviyatini shakllantirishdagi o‘rni, uning inson ruhiyatiga ta’siri va bugungi kun uchun dolzarbligi ilmiy yondashuv asosida izohlanadi. Maqola orqali o‘quvchi jahon adabiy merosida insoniyatni birlashtiruvchi g‘oyalarning o‘rni va ahamiyatini anglab yetadi.*

Kalit so‘zlar: *Jahon klassik adabiyoti, umuminsoniy g‘oyalar, axloqiy qadriyatlari, insonparvarlik,adolat,ma’naviyat,adabiy meros.*

Kirish

Insoniyat tarixida adabiyot doimo ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri bo‘lib kelgan. Xususan, jahon klassik adabiyotida insoniyatni birlashtiruvchi, millat va zamon chegaralaridan yuqori turuvchi umuminsoniy g‘oyalar o‘zining chuqur badiiy ifodasini topgan. Don Kixotning ezgulikka intilishi, Hamletning adolat izlovchi kurashi, yoki Orestening fidoyiligi kabi obrazlar insoniyat tarixida umuminsoniy qadriyatlarning timsoliga aylangan. Ushbu maqolada biz ana shunday asarlar orqali insonparvarlik,adolat,mehr-oqibat,halollik kabi tushunchalarning qanday yoritilganini, ular bugungi jamiyatimiz uchun qay darajada dolzARB ekanini tahlil qilamiz.

Asosiy qism

Jahon klassikasi, ya’ni butun dunyo bo‘yicha tan olinib, sevib o‘qiladigan asarlar jamlanmasidir. Bu asarlar klassika darajasiga yetishi uchun necha asrlar silsilasidan omon o’tgan. Men bugun sizlarga bir qator klassik durdonalarga bo’lgan munosabatlar va ularda ko’tarilgan umuminsoniy g‘oyalar haqida so’zlamoqchiman. Axir aytishadi–ku, qo’shni qishloqdan chiqqan donishmanddan ko’ra o‘z qishlog’imdan chiqqan telba afzal, deydiganlar jamiyat ildiziga tushgan qurtdir. Demak shunday ekan jamiyatimiz ildizini mustahkamlab dunyo xalqlari madaniyati bilan oshno bo’laylik. Taniqli adib Lev Tolstoyni tanimagan, uning ajib san’at gavharlaridan bahra olmagan kishi bo’lmasa kerak oramizda. Lev Talstoyni “Anna Karenina” asari o‘z davridan to hozirga qadar kitobxonlarni hayratga solib keladi. Men asarning dastlabki jumlasiga e’tiborlaringizni qaratmoqchiman. Tolstoy shunday yozadi :–“Baxtli oilalarning hammasi bir biriga o’xshaydi ,baxtsiz oilalarning har biri o’zicha baxtsizdir. Bizga ma’lumki, jamiyatning



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bosh bo'g'ini oila hisoblanadi . Har bir oilada sog'lom muhit hukm sursa , jamiyat rivojlanadi, jamiyatning rivoji esa, butun mamlakatning gullab yashnashiga olib keladi. Yozuvchi oila muammosini davlat siyosati darajasiga ko'taradi. Davlat siyosati oilalar va insonlar taqdirida muhim rol tutishini ta'sirchan yoritib beradi. Asar qahramoni Anna Karenina o'z taqdirini o'zgartirish uchun harakat qiladi, ammo uning toza qalbi buni xato ekanini aytib turadi. U Graf Vronskiy bilan o'zini baxtiyor sezsa-da, lekin ko'ngli doim farzandi-da edi. Axir aytishadiku : Hatto bulbul ham bola ochgandan keyin sayrashni bas qilib, poloponiga yemish tashiydi. Asarni o'qib shu narsaga amin bo'ldim-ki, ota –ona uchun farzandining baxti uning kelajagi birinchi o'rinda turadi. Xuddi shunday Anna ham yaqinlarinin oldidagi gunohini o'z joni bilan yuvadi. Atoqli yozuvchimiz O'tkir Hoshimov aytganlaridek "Do'stni xo'rash gunoh, umr yo'ldoshini xo'rash yuz hissa gunoh, ota-onasini xo'rash ming hissa gunoh, go'dakni xo'rash cheksiz gunoh. Anna o'z gunohiga og'ir badal to'ladi .Asarda insoniy g'oyalarni ko'plab uchratamiz: Vatanga sadoqat, an'analarga hurmat, do'stga himmat , o'zaro mehr oqibat. Yuqoridagi asar haqidagi mulohazalarimni yakunlay turib, shu narsani aytmoqchiman. Inson shu qadar buyuk-ki, uning fazilatlarini o'lhash-dunyodagi eng baland tog'ning cho'qqisiga emaklab chiqish zahmati bilan teng. Inson shu qadar tubanki uning illatlarini o'lhash dunyodagi eng baland tog'ning cho'qqisidan emaklab tushish zahmati bilan teng. Yana bir tengsiz ijodkor Onore De Balzakning "Gorio Ota" romanini o'qib biz uchun qadri beqiyos ota obrazini bor bo'yи bilan ko'ramiz. Onalar mehri qanchalik sezilarli bo'lsa, otalar muhabbat shunchalar yashirindir. Ota o'z farzandi uchun nimalarga qodir ekanligini asarni o'qish davomida yana bir bora amin bo'ldim. Gorio otaning ikkita qizi bo'lib, ota butun boyligini shu ikki qiziga bo'lib beradi. O'zi esa kambag'allikda kun ko'ra boshlaydi. Gorio otaning bir so'zidan juda ta'sirlandim. U shunday deydi:-"Qizlarim tizzasidagi kuchukchaga aylanib qolsam edim. Mayli men haqimda hamma gapiraversin, men egnimda bo'z ko'ylak kiysam ham mayli, qizlarim pat gilamlarda, shoyi liboslarda yurishsa bo'lgani." Uning ishlari joyidaligida do'stlari sanoqsiz edi. Aslida ham shunday, do'st degani daraxt yaprog'iga o'xshaydi. Bahor chog'i behisob, kuz kelganda sanoqli. Inson umri davomida sodiq do'st topishi zarur, ishongan do'sti bo'lgan odam xor bo'lmaydi. Asarda davr ruhi ustalik bilan aks ettirilgan bo'lib, Balzak asar qahramoni Votren tilidan buni yaqqol ko'rsata oladi. U shunday deydi:-"E'tiqod va lafz degan narsa bilan hisoblashib o'tirishni tashlang. Bunday narsalarga xaridor topulgiday bo'lsa pullab yuboring." Bu jumla orqali anglashimiz mumkinki, Restovratsiya davri Parij hayotida faqat moddiy ustunlik birinchi o'rinni egallab kelgan va bu Balzak kabi ijodkorlarni shu kabi mavzularda asar yozishga majbur etgan. Hozirgi dorilamon zamonimizda ham muhim bo'lgan holatlar mavjudligi boisdan asar hali hamon o'z muhlislarini ta'sirlantirmasdan qolmaydi.

Yuqorida suhbatlashgan asarlardan so'ng men bevosita Paylo Koeloning "Alkimyogar" romanini kitobxon muhlisga tavsiya etgan bo'lardim. Men asarni qayta-qayta o'qib shu xulosaga keldim. Hayotning ming bitta so'qmoqlari bor. Bu

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

so'qmoqlarda har kim to'qnashib, tutilib, (yiqilib) o'zining ravon yo'liga chiqib oladi. Dunyoda yetti marta yiqilib, sakkiz marta turib keta olgan odamgina o'z baxti va omadini topa oladi.

Men asarni hamma narsa taqdiri azalga bog'liq, ammo taqdirimizni o'z qo'limiz bilan o'zgartira olishimizni angladim.

Asarda yozuvchi inson og'ziga kirayotgan narsadan emas, chiqayotgan narsadan tug'iladi deyilgan. Darhaqiqat, biz aytayotgan har bir so'zga javobgarmiz. Shunday ekan so'zlarimizni ezgulik bilan ziynatlaylik.

Jafokash degan so'zni, asosan, biz muqaddas oilalarimiz tayanchi bo'lgan ota-onamizga, jonkuyar, zahmatkash ustozlarimizga, shuningdek, har qanday sohaning chin ustalariga nisbatan ishlata olamiz. Jafokashlik bu- mehribonlik, g'amxo'rlik, jonkuyarlik, fidokorlik demakdir. Biz ota-onamizni, bиринчи о'qituvchimizни, xalqi uchun, vatanining ravnaqi uchun xizmat qilayotgan har bir zahmatkash insonni ko'z oldimizga keltirar ekanmiz, ularning ezgu fazilatlari ichida jafokashlik, fidokorlik xislatlarini alohida ta'kidlab o'tamiz. Jonkuyarlik, jafokashlik xislatlarini biz to'laligicha muqaddas dargoh hisoblanmish o'z oilalarimizda yaqqol guvohi bo'lamiz. Sababi oilaning mustahkamligi, turmushning osoyishta bardavomligi buzilmas oila qo'rg'onining ikki ustuni bo'lmish ota-onalarimizga bog'liqdir. Farzandlar dunyoga kelishi bilanoq ilk saboqlarni o'z ota-onalaridan olishadi. Axir hech bir farzand tug'ilishi bilan yoinki og'ri, yoki olim-faylasuf, yaxshi yoki yomon bo'lib tug'ilmaydi. Gamxo'r suyanchlarimiz hali farzandlari dunyoga kelmasdanoq, jigarbandlarining sog'lom, yetuk va barkamol, komil inson bo'lishlarini tilab samimi orzu-niyatlar va go'zal duolar qilishadi. Shunday jamiyatga foydasi tegadigan komil insonni tarbiyalashdek og'ir, ma'sulyatli vazifa ana shu mehribonlarimiz, g'amxo'rlarimiz zimmalariga yuklatilgan bo'ladi. Hech bir farzand bu buyuk zotlar oldidagi qarzlarini butun hayoti davomida ham qaytarolmaydilar. Buni hayot haqiqati deydilar. Lekin ba'zi bir noqobil farzandlar bu dunyodagi yagona, topilmas boyligi, xazinasi bo'lgan o'z ota-onalarining qadriga yetmaydilar. Ularning butun umrlik mehnatini oyoqosti qiladilar. Aynan ana shunday ayanchli holatni biz jahon adabiyotining durdonasi bo'lgan Onore De Balzakning "Gorio Ota" romanida jafokashlikning chin talqinini ko'rishimiz mumkin. Asar voqealari Restavratsiya davrida bo'lib o'tadi. Yozuvchi asarda burjuaziya dunyosining qonunlari shafqatsizligi, jamiyatda insonlarning qadr qiymati qancha daromad topishiga qarab belgilanishi va umuman, eng achinarlisi inson-ota qadri pul bilan o'lchanligi ta'sirchan tarzda yoritilgan. Roman markazida Gorio ota va uning takabbur qizi turadi. Goio ota mavqega, mulkka ega bo'lgan davrida cheksiz mehr-muhabbat va xushomadlar girdobida bo'ladi, lekin davlati, boyligi qo'ldan ketib, u qashshoqlashganda esa kamsitiladi. Uni hamma unitadi. Yozuvchi roman asosida mo'may daromad va foydani ko'zlab oilaning barbod bo'lishini, insonning eng ezgu his-tuyg'ularinig asta-sekin yemirilishini salbiy holatlar, sovuq ranglar, aldov so'zlar orqali o'ta ta'sirchan ifodalilanilgan. Gorio ota taxminan yetmish yillik umrining deyarli barcha yillarini ikkiyuzlamachi,

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



shuxratparast insonlar orasida aldovlar vaq xushomadlar ichida o'tkazadi.


Hatto, asar so'ngida cholning oxirgi xo'rshinishida ham uning butun bir samarasiz hayoti yana bir bor aks . Lekin u yana aldangan bo'ladi. Asarda Gorio ota qanday yashagan bo'lsa, shunday o'ladi. U o'limi oldidan doimo qizlarining mehriga tashnalikda yashaganligini o'ksinish bilan e'tirof etadi. Shunda ham qizlar va kuyovlari tomonidan xo'rshanishiga, oyoqosti bo'lishiga faqat o'zini aybdor deb biladi. Farzandlariga noto'gri tarbiya bergenligi, ularni shundaysov uq munosabatiga uning o'zi o'gatganligi uchun o'zini gunohkor deb biladi. Hayotidagi nohaqliklarga o'zini loyiq deb hisoblaydi. Asarda biz Gorio ota timsolida haqiqiy bag'rikenglikni ko'ramiz. Undagi voqealar hayotiy fojiya bo'lsa-da, har bir inson o'zi uchun kerekli xulosalarni chiqarib olishi mumkin. "Gorio Ota" so'ngida ota cheksiz mehr-muhabbati evaziga ayanchli bo'lgan taqdir zarbalariga uchraydi va achinarli tarzda halok bo'ladi. Yurtimizda ham oila farovonligini ta'minlash borasida ko'plab tashkiliy ishlar olib borilmoqda. Yurt tinchligi, oilalarning porloq kelajagi ko'ngil xotirjamligiga sabab bo'ladi va barcha imkoniyatlar eshigining kaliti bo'la oladi. Odamzod go'dakligidayoq hayotidagi eng katta orzulari amalga oshmaydigan orzular deb singdiriladi. Ammo Yapon oilalarda farzandlariga sizning otabobolaringiz kuchli, buyuk, aqli odamlar bo'lishgan, siz esa ulardan yuz karra dono bo'lasiz deb takrorlashar ekan. Men xohlardimki, barcha o'zbek xonardonlarida ham bu kabi so'zlar bot-bot aytilda, axir bizning bobolarimiz dunyo ilm fan tamal toshini qo'ygan daholar hisoblanishadi. Demak, biz ulardan ming karra bilimdon, aqli, dono bo'lmog'imiz shart va albatta, biz ajdodlarga munosib voris bo'lamiz.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, jahon klassik adabiyoti insoniyat uchun muhim bo'lgan umuminsoniy g'oyalar va axloqiy qadriyatlarning beba ho manbayi sifatida qadrlanadi. Buyuk adiblar asarlarida insonparvarlik, adolat, ezgulik, mehr-oqibat kabi tushunchalar chuqr badiiy ifodasini topib, o'quvchini yaxshilikka, ezgu maqsadlarga chorlaydi. Bu kabi asarlar nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi globallashuv sharoitida ham insoniyatni ma'naviy jihatdan boyitishda, jamiyatda barkamol shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, klassik adabiyotdagi umuminsoniy g'oyalarni o'rganish va targ'ib etish har birimizning ma'naviy burchimizdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. G'afurov, B. Adabiyot – inson ma'naviy olamini yuksaltirish omili. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. N. Berdyaev. Inson va jamiyat: erkinlik falsafasi. – Toshkent: Sharq, 2005.
3. Tolstoy, L.N. San'at nima? – Moskva: Eksmo, 2010.
4. Hugo, V. "To'qnashuvdag'i ikki g'oya" – adolat va ezgulikning badiiy ifodasi. // Juhon adabiyoti jurnali, 2015, №3.



**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS**



5. Do'stmuhammad, A. Jahon adabiyoti va umuminsoniy qadriyatlar talqini. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.

